

Shaytonning hiylasi



17:45 / 25.09.2019 5279

4

Lekin shayton insonlarni miyalariga kiradigan eshikni topdi. Kishilar Allohdan qo'rqardilar va Allohga kecha-yu, kunduz ibodat qilardilar, uni ko'p zikr qilardilar. Ular Allohni yaxshi ko'rardilar, Alloh ham ularni yaxshi ko'rar va (duolarini) qabul qilar edi. Insonlar ham ularni yaxshi ko'rar va ulug'lardilar. shayton bu ishlarni yaxshi bilardi. Ular o'ldilar va Allohning rahmatiga yo'liqdilar. Shayton insonlar oldlariga borib, o'sha (ulug') kishilarni esladi. u: «oralaringizda falonchi, falonchi va falonchi qanday (odam) bo'lgan edi?» degan edi, ular: «Subhanalloh! ular Allohning xos kishilari va do'stlaridir. ana o'shalar agar duo qilishsa qabul qilardi, nimani so'rasalar ato etar edi», dedilar.